

SODDA VA MURAKKAB TERMINLARNING LESIK-SEMANTIK TAHLILI.

Sidiqova Ma'mura

Toshkent shahar Oriental Universiteti

Sharq tillari kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada arab tilidagi tijoratga oid terminlarning lug'aviy va istilohiy ma'nolarini o'zbek tilidagi tarjimasi, arablarning islomgacha qo'llagan terminlari, islomdan keyin shakllangan terminlar va hozirgi zamonda arab tilida savdoga oid qo'llaniladigan terminlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: terminologiya, termin, savdo-sotiq, arab tili, Qur'oni Karim, hadisi sharif, tijorat.

Аннотация: в данной статье представлен узбекский перевод словаря и терминологических значений коммерческих терминов на арабском языке, терминов, использовавшихся арабами до ислама, терминов, образовавшихся после ислама, а также коммерческих терминов, используемых в арабском языке сегодня.

Ключевые слова: терминология, термин, торговля, арабский язык, Священный Коран, хадисы, коммерция.

Abstract: In this article, the dictionary and terminological meanings of commercial terms in Arabic are translated into Uzbek, the terms used by the Arabs before Islam, the terms formed after Islam, and the commercial terms used in Arabic today.

Key words: terminology, term, trade, Arabic language, Holy Qur'an, hadith, commerce.

Arab terminologiyasining rivojlanish tarixi ikki bosqichdan – klassik va zamonaviy bosqichlardan iborat. O'rta asrga xos an'anaviy diniy ilmlar, ya'ni shari'at, arab tilshunosligi, tarix, she'riyat va boshqa ayrim sohalarni arab tilida rivoj topgani, ular o'sha paytdanoq mustaqil terminlar bilan to'liq ta'minlanganligidan dalolat beradi. Shu bilan bir vaqtning o'zida o'sha davrda yunon tilida o'z aksini topgan tabiiy fanlar – kimyo, matematika, geometriya, mexanika, astronomiya hamda falsafa, mantiq, musiqaga oid terminlar orasidan kelib chiqishiga ko'ra arabcha bo'lgan terminlar bilan bir qatorda yaxshi moslashtirilgan o'zlashtirmalar ham mavjud bo'lganligi kuzatiladi⁵.

Boshqa tillardagi terminlarni o'zlashtirish turli yo'llar orqali amalga oshiriladi. Bunda termini yaratish va terminlar majmuini to'ldirishda umumadabiy lug'atni boyitish uchun mo'ljallangan til vositalarining o'zidan foydalaniladi. Bunda quyidagi usullar qo'llaniladi:

⁵ Қодиров Т.Ш., Алиев Д.И. Араб тили лексикологияси. –Т.: ТошДШИ, 2010. –Б. 47.

1. Til leksikasida qachonlardir mavjud bo'lgan yoki hozirda mavjud bo'lgan maxsus tushunchalarni terminlashtirish.

2. Tildagi mavjud qonuniyatlar asosida yangi terminlar yaratish.

3. Terminlar va termin birikmalarini tarjima qilish va navbatdagi jarayon sifatida ularni qisqartirish va murakkab so'zga aylantirish.

4. Terminlarni bevosita o'zlashtirish⁶. Arab tilidagi iqtisodga oid terminlarni hosil qilishda ham aynan yuqoridagi qonuniyatlarga asoslanildi.

“Termin” tushunchasi uchun arab tilida - al-istilah (الاصطلاح) so'z, ya'ni “o'zaro kelishuv” degan ma'noni anglatadi. Muayyan odamlar guruhining ma'lum bir so'zlarni maxsus ma'nolarda ishlatishga roziligi. Natijada, ko'p so'zlar umumiy til (lugaviy) va “shartnoma” yoki terminologik (istilaxiy) uchun ikkita ma'noga ega edi.

Quyida arab tilidagi tijoratga terminlarning lug'aviy va istilohiy ma'nolarini o'zbek tilidagi tarjimasi, arablarning islomgacha qo'llagan terminlari, islomdan keyin shakllangan terminlar va hozirgi zamonda arab tilida savdoga oid qo'llaniladigan terminlar keltirilgan.

البيع – باع – يبيع – يبيعا / الشراء / المبادلة - savdo-sotiq, tijorat

البيع termini sullosiy mujarradning ajvaf⁷ turkumiga oid fe'l bo'lib, lug'aviy birlik sifatida bir narsani boshqa narsaga almashtirish ma'nosini anglatadi. باع fe'li o'timli fe'l bo'lib, o'zidan keyin vositasiz to'ldiruvchi keladi, masalan بعث الشيء . البيع so'zining yigirmadan ortiq turi bo'lib, ulardan ba'zilarini sharhi keltiriladi⁸. Arablar bu so'zni islomdan oldin ham muomalada ishlatganlar. Bu so'zning sinonimlari الإعطاء الشراء so'zlar bo'lib, البيع so'zi ma'nosida qo'llaniladi. Bu sinonimlarni antonim deb ham atash mumkin. بعث so'zi tovarni sotdim yoki tovarni sotib oldim ma'nosida ham ishlatilishi mumkin. Ulamolar bu so'zni asl kelib chiqishi haqida turli fikrlar bildirganlar. Ba'zilarى الباع ya'ni “bo' – barmoqlar bilan uzatilgan qo'l orasidagi masofa, ya'ni uzunlik o'lchov birligi, 3 yoki 4 cm da teng” degan so'zdan olingan, deyilar. Boshqalar الباع “mulk” so'zidan olingan deyilar, chunki savdo-sotiq mulkka ega bo'lishni taqozo qiladi. Termin sifatidagi ma'nosi esa sotuvchining mulkidan ketib, sotib oluvchining mulkiga kiradigan pul evaziga yoki biror tovar evaziga qarzsiz va ribosiz almashishdir⁹. “Hidoya” kitobida “ikki tomonni roziligi bilan molni molga almashtirish” deb ta'rif berilgan¹⁰.

Qur'oni Karimning Baqara surasida البيع so'zi zikr qilingan¹¹.

⁶ Турсунова У., Мухторов А., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Т.: Ўзбекистон, 1992. –Б.66.

⁷ Ikkinchi o'zak undoshi و yoki ي iborat bo'lgan fe'llar. N.Ibrohimov, M.Yusupov. Arab tili grammatikasi. T.: 1997. – 87 b.

⁸ الهداية شرح بداية المبتدي للإمام برهان الدين أبي الحسن علي بن أبي بكر المرغيناني: الجزء الخامس - باكستان: إدارة القرآن و العلوم الإسلامية, 1417 هـ

⁹ محمود عبد الرحمان عبد المنعم. معجم المصطلحات و الألفاظ الفقهية: الجزء الأول - القاهرة: دار الفضيحة, 1999.

¹⁰ الهداية شرح بداية المبتدي للإمام برهان الدين أبي الحسن علي بن أبي بكر المرغيناني: الجزء الخامس - باكستان: إدارة القرآن و العلوم الإسلامية, 1417 هـ . ص - 3.

¹¹ Baqara surasi 257-oyat.

{وَأَحَلَّ اللَّهُ الْبَيْعَ وَحَرَّمَ الرِّبَا}

“Va holbuki, Alloh tijoratni halol, riboni harom qildi”. Bu oyatda البيع so’zi savdo-sotiq ma’nosida kelgan.

Hadisi shariflarda ham البيع so’zi ko’m marta zikr qilingan, quyida shu hadislardan biri bilan tanishish mumkin.

عن جابر - رضي الله عنه - أن رسول الله - ﷺ - قال: رحم الله رجلاً سمحاً إذا باع وإذا اشترى وإذا اقتضى. رواه البخاري.

Jobir ibn Abdulloh roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: “Sotganda ham, sotib olganda ham, haq talab qilganda ham bag’rikeng bo’lgan kishiga Alloh rahm qilsin!” dedilar¹²”

التجارة – تجر – يتجر- تجرا و تجارة. المصدر الدال على المهنة. - Tijorat

التجارة so’zi lug’atda “tijorat yurgizmoq, savdo-sotiq qilmoq” ma’nosini anglatadi. Istolohda esa, ulamolar tijoratning tarifida bir-biriga yaqin bir necha ma’nolarni aytishgan: “Tijorat”- bir narsani savdoga qo’yib, foyda olish uchun sotib olishdir”; “Tijorat” - oldi-sotdi ila foyda izlashdir.”; “Tijorat” – foyda ko’rish maqsadida molni aylantirishdir” va hokazo¹³.

Qur’oni Karimda hamda hadisi shariflarda التجارة so’zini “savdo-sotiq qilmoq” ma’nosida zikr qilingan.

{يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا لَا تَأْكُلُوا أَمْوَالَكُمْ بَيْنَكُمْ بِالْبَاطِلِ إِلَّا أَنْ تَكُونَ تِجَارَةً عَنْ تَرَاضٍ مِنْكُمْ وَلَا تَقْتُلُوا أَنْفُسَكُمْ إِنَّ اللَّهَ كَانَ بِكُمْ رَحِيمًا}

“Ey iymon keltirganlar! Bir –birlaringizning mollarigizni botil yo’l bilan emang. Magar o’zaro rozilik ila tijorat bo’lsa, mayli. O’zingizni o’zingiz o’ldirmang. Albatta Alloh taolo, sizlarga o’ta rahmlidir¹⁴.”

و قال قتادة: كان القوم يتبايعون و يتجرون و لكنهم إذا نابهم حق من حقوق الله أم تلهم تجارة و لا بيع عن ذكر الله حتى يؤدوه إلى الله.

Qatoda aytadi: “Odamlar o’zaro savdo-sotiq va tijorat qilishar edi. Lekin ularga Allohning haqlaridan biri to’g’ri kelsa, uni Allohga ado etib qo’ymagunlaricha, ularni Allohning zikridan na tijorat, na oldi-sotdi chalg’ita olmas edi¹⁵.”

المبيعات – قد يكون طعاما و قد يكون غير طعام و لكنه مكيال أو موزون أو معدود أو مذروع.

turli ko’rinishdagi va jinsdagi savdo mollaridir. Savdo mollarining turlari har hil bo’lgani uchun masdar ko’plik shaklda keltirilyapti. Tarozda o’lchanadigan, donalab sotiladigan va o’lchab sotiladigan savdo mollari¹⁶. المبيعات so’zi o’zbek tiliga tovarlar yoki savdo bitimlari deb tarjima qilinadi.

¹² Oltin silsila: Sahihul Buxoriy, 3-juz. – Toshkent.: Hilol-nashr, 2021. – 98 b.

¹³ <https://sammuslim.uz/oz/articles/society/savdo-tijorat-va-uning-odoblari>

¹⁴ Niso surasi 29-oyat.

¹⁵ Oltin silsila: Sahihul Buxoriy, 3-juz. – Toshkent.: Hilol-nashr, 2021. – 90 b.

¹⁶ Farhod Jo’rayev. Fiqhiy atamalarning izohli lug’ati. – T.: “Azon kitoblari”, 2020.

Shu o'rinda التسويق va المبيعات so'zlarini o'zaro bog'liqligini va farqlarini aytib o'tish mumkin.

التسويق ya'ni marketing - bu mahsulotning iste'molchiga etib borishini yaxshilashga qaratilgan texnika va taktikalar majmuidir Boshqacha aytganda, marketing brendlar o'z mahsulotlari iste'molchilarning ehtiyojlari yoki istaklarini qondira oladigan harakatlarni o'z ichiga oladi.

المبيعات ga kelsak, bu xaridorning ehtiyojlarini qondira oladigan tovarlar yoki xizmatlar ma'nosini tushunish mumkin. Ikkala termin bir-birini to'ldiradi¹⁷.

الشراء\الإستراء – pul to'lab, tovarni olish

البيع. الشراء so'zi hosila boblarinig uchinchisis bo'lib شاري, أشاري ning masdaridir¹⁸. البيع va الشراء terminlarini sinonim sifatida ham ishlatiladi ya'ni, ayirboshlash molda bo'ladimi yoki moldan boshqa narsada bo'ladimi, farqi yo'q¹⁹. الشراء so'zining ma'nosi "pulni to'lab, tovarni olish"²⁰ dir.

الإيجاب – مصدر أوجب, أمين السوق البيع : ألزمه - rozilik

الإيجاب IV bobning masdari bo'lib, e'tirof qilish, tasdiqlash, rozilik ma'nosida. Istilohda savdo qilayotgan ikki tarafdin birining savdo haqida avval aytgan gapidir²¹.

القبول – القبول أو القبول. الرضا بالشئ و ميل النفس إليه - qabul qilmoq

القبول I bobning masdari "qabul qilish, kelishish, rozilik" ma'nolarini anglatadi. Istilohda savdo vaqtida ikki tarafdin birining savdo haqida ijobdan keyin aytgan gapidir²².

الإيجاب va القبول terminlari fiqh kitoblarining turli boblarida tez-tez takrorlanadiga so'zdir. Iqtisodiy, savdoga oid masalalarda bu terminni o'zbek tiliga "taklif va aksept" deb tarjima qilinadi. Aksept so'zi lotin tilidan qabul qilingan bo'lib, pul, hisob-kitob, tovar hujjatlarini yoki tovar haqini to'lashga rozilik berish yoki to'lashga kafil bo'lish ma'nosini anglatadi. Ya'ni taklif etilgan shartlarda shartnoma tuzishga rozilik berishdir²³.

الأرض – الدية - to'lov, badal

الأرض lug'atda "to'lov, badal" ma'nosini anglatadi. Aybsiz va aybli tovar o'rtasidagi farq, ya'ni siz ming so'mga biror narsa sotib oldingiz, to'lov qilganingizdan keyin aybli ekani ma'lum bo'ldi. Istasangiz tovarni qaytib berib pulni olasiz, istasangiz "الأرض" ni ya'ni to'lagan pulingizni bir qismini qaytarib olasiz²⁴.

¹⁷ <https://businessbelarabi.com/uncategorized/5-2/>

¹⁸ N.Ibrohimov, M.Yusupov. Arab tili grammatikasi. T.: 1997. – 227 b.

¹⁹ Farhod Jo'rayev. Fiqhiy atamalarining izohli lug'ati. – T.: "Azon kitoblari", 2020. 162-b.

²⁰ <https://www.almaany.com/ar/dict/ar-ar/>

²¹ Farhod Jo'rayev. Fiqhiy atamalarining izohli lug'ati. – T.: "Azon kitoblari", 2020. 163-b.

²² O'sha asar o'sha bet.

²³ S.Muhammedova, Ye.Shirinova, S.Xudoyberdiyeva Bank-moliya terminlarining o'zbek tilidagi izohli lug'ati. . – T.: "Kafolat print company" 2022

²⁴ سليمان الراجلي. فقه المعاملات المالية. - شرحه. : دائرة الشؤون الإسلامية , 2015 .

O'rta asrlarda bu termin jinoyat evaziga to'lanadigan jarima ma'nosida qo'llangan. Buni quyidagi hadisi sharifda ko'rishiimiz mumkin

روي عن أنس رضي الله عنه "أن ابنة النضر (واسمها الربيع) كسرت سن (ثنية) جارية، فطلبوا الأرض وطلبوا العفو، فأبوا، فأتوا رسول الله ﷺ فأمرهم بالقصاص، فقال أنس بن النضر: أتكسر ثنية الربيع يا رسول الله؟ لا والذي بعثك بالحق لا تكسر ثنيتها، فقال: يا أنس، كتاب الله القصاص. فرضي القوم وعفوا... وزاد الفزاري: فرضي القوم وقبلوا الأرض"

Anas roziyallohu anhu bunday so'zlab berdilar:

"Rubayyi" – u Nazirning qizi – bir cho'rining kurak tishini sindirdi. (Aybdor tomon) tovon olib, avf qilishni so'ragan edi, bular ko'nishmadi. Keyin Nabiylar sollohu alayhi va sallamga kelishgan edi, ularni qasos olishga buyurdilar. Shunda Anas ibn Nazir: "Rubayyi'ning kurak tishi sindiriladimi, ey Allohning Rasuli? Yo'q sizni haq bilan yuborgan zotga qasamki, uning kurak tishlari sindirilmaydi!" dedi. U zot: "Ey Anas, Allohning farzi - qasosdir", dedilar shunda (cho'rining) qavmi rozi bo'lib, kechirib yubordi va Nabiylar sollohu alayhi va sallam: "Albatta, Allohning bandalari ichida Alloh ila qasam ichsa, U Zot uni oqlaydiganlari bor", dedilar"²⁵

النفيس – مال كثير - qimmatbaho

النفيس lug'atda "qimmatbaho" ma'nosini anglatadi. Qimmatbaho metall, xomashyo, qimmatli qog'ozlar va zargarlik mahsulotlariga nisbatan ishlatiladi.

الخصيس – قليل أو دنيء / فاعل من خس - arzon narxli

الخصيس lug'atda "razil, past, narxi arzon tovar" ma'nosini anglatadi. Istilohda baqlajon, anor va non kabi narxi arzon bo'lgan savdo mollari.

الصبرة – اشترى الشيء صبرة: بلا كيل ولا وزن - ulgurji

الصبرة lug'atda "uyum, to'p, ulgurji" ma'nosini anglatadi. Istilohda taom yoki shunga o'xshash buyumlarni o'chamasdan ko'tarasiga sotib olish²⁶ ma'nosini anglatadi. Bu so'z hadishi shariflarda ham keltirilgan bo'lib, ayni shu ma'noni anglatadi.

عن جابر بن عبد الله رضي الله عنهما قال: نهى رسول الله ﷺ عن بيع الصبرة من التمر لا يعلم مكيلها بالكيل المسمى من التمر؛ رواه مسلم

الغبين – غَبْنٌ-يَغْبُنُ-غَبْنًا / حديعة في البيع والشراء - arzon molni qimmatga sotish

الغبين lug'atda "aldamoq, tarozidan urmoq, hisobda aldamoq, nohaq baholamoq, pasaytirmoq, g'olib kelmoq" ma'nolarini anglatadi ya'ni, sotuvchi sifati jihatidan arzon bo'lgan savdo molini xaridorga qimmatroqqa sotishidir. Bu termini sotuvchi va xaridorga ham qo'llasa bo'ladi. الغبن – sotuvchi o'n so'm turadigan tovarni sakkiz so'mga sotishidir. الغبن – xaridor sakkiz so'mlik tovarni o' so'mga sotib olishidir²⁷.

العيب – جمعه عيوب. الوصمة - tovardagi ayb, kamchilik

²⁵ Oltin silsila: Sahihul Buxoriy, 3-juz. – Toshkent.: Hilol-nashr, 2021. – 599 b.

²⁶ Farhod Jo'rayev. Fiqhiy atamalarining izohli lug'ati. – T.: "Azon kitoblari", 2020. – 163 b.

²⁷ سليمان الراجلي. فقه المعاملات المالية. – شرجة.: دائرة الشؤون الإسلامية, 2015. ص 263

العيب lugʻatda “kamchilik nuqson, illat” maʼnosini anglatadi. Istilohda savdo vaqtida sotuvshi xaridorga tovarni oʻz qoʻli bilan topshirayotgan paytida xaridor tovardagi aybni koʻrmasligi²⁸ yoki tovarni narxini tushiradigan kamchiligi.

الجس – مس الشيء و لمسه - qoʻl bilan ushlab koʻrmoq

الجس lugʻatda “paypaslamoq, ushlab koʻrmoq” maʼnolisni anglatadi. Istilohda savdo molini yaxshilab bilish uchun qoʻl bilan ushlab koʻrishdir.

الوضعية – zarariga sotmoq

Lugʻatda “skidka, narxda yon bosish, zarariga sotish” maʼnosida. Sotuvchi sotib olgan molini oʻzining haqiqiy narxidan arzeroqqa sotishidir.

التولية – vakil

التولية noqis feʼl boʻlib, II-bobnig masdaridir. Lugʻatda “boshqaruvchi qilib tayinlash” maʼnosida, sotuvchi molni sotib oladi va xaridorga oʻsha narxga sotadi. Bu holatda goʻyoki xaridor sotuvchini molni sotib olish uchun vakil qilgandek boʻlib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, bu bobda savdo sotiqqa oid sodda, yaʼni bir soʻzdan iborat boʻlgan yigirmata terminlarning leksik-semantik tahlili qilindi. Terminlarni oʻzagi, vazni va bobi batafsil bayon qilindi. Har bir terminning bir necha hil lugʻaviy maʼnolari yozildi. Terminlarni lugʻaviy maʼnolarini yozishda mualliflar jamoasi tomonidan tuzilgan arabcha-oʻzbekcha “An-Naʼim” lugʻat kitobidan, X.K.Baranovning “Арабско-русский словарь” kitobidan va arabcha izohli elektron lugʻatlardan foydalanildi. Baʼzi terminlarni lugʻaviy maʼnolarini batafsil bayon qilish maqsadida Qurʼoni Karim oyatlaridan misollar keltirildi. Tanlangan soʻzlarni terminologiyadagi maʼnolarini izohlashda arablarning islomdan avval va islomdan keyingi asrlardagi savdoga oid soʻzlarni maʼnolarini izohlash uchun hadisi shariflardan misollar keltirildi. Hadisi shariflar arablarning ijtimoiy hayoti haqida bizga juda qimmatli maʼlumotlarni etkazishda, ularning hayot tarzi haqida maʼlumot berishda ishonchli manba hisoblanadi. Ushbu magistrlik ishida keltirilgan hadisi shariflarning arab tilidagi matni va tarjimasi “Hilol nashr” nashriyoti tomonidan chop etilgan sakkiz juzdan iborat “Oltin silsila Sahihul Buxoriy” kitobidan olindi.

Bir soʻzli terminlarni maʼnolarini sharhlashda islom olamida muʼtabar asarlardan biri hisoblangan Burhoniddin Margʻinoniyning الهداية asaridan, Mahmud Abdurrahmon Munʼimning معجم المصطلحات و الألفاظ الفقهية, Ali ibn Muhammad Jurjoniynig “التعريفات” asaridan, Doktor Salmon Rahiliyning “فقه المعاملات المالية” kitobidan, Muftiy Muhammad Taqiy Usmoniynig “Islom moliyasiga kirish” va Farhod Joʻrayevning “Фикхий атамаларнинг изоҳли луғати” kitobidan foydalanildi.

²⁸ Farhod Joʻrayev. Fiqhiy atamalarning izohli lugʻati. – T.: “Azon kitoblari”, 2020.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirov T. Sh., Aliev D. I. Arab tili leksikologiyasi. –T.: ToshDShI, 2010. - 110 b.
2. Tursunova U., Muxtorov A., RahmatullaevSh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: O‘zbekiston, 1992.- 397 b.
3. Oltin silsila. Sahihul Buxoriy. -T.: Hilol nashr, 2021. 3 va 4-juz.
4. S.Muhammedova, Ye.Shirinova, S.Xudoyberdiyeva Bank-moliya terminlarining o‘zbek tilidagi izohli lug‘ati. . – T.: “Kafolat print company” 2022
5. Farhod Jo‘rayev. Fiqhiy atamalarning izohli lug‘ati. – T.: “Azon kitoblari”, 2020.
- 6.
7. الهداية شرح بداية المبتدي للإمام برهان الدين أبي الحسن علي بن أبي بكر المرغيناني: الجزء الخامس – باكستان: إدارة القرآن و العلوم الإسلامية, 1417 هـ
8. سليمان الراجلي. فقه المعاملات المالية. – شرحة: دائرة الشؤون الإسلامية, 2015. ص 263
9. <https://sammuslim.uz/oz/articles/society/savdo-tijorat-va-uning-odoblari>
10. <https://www.almaany.com/ar/dict/ar-ar/>
11. <https://businessbelarabi.com/uncategorized/5-2/>